

TURIZM SOHASIGA OID LEKSIK MATERIALNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VOSITASIDA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Davlatova Hilola

NamDU Lingvistika magistratura 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turizm sohasida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, ulardan samarali foydalanish yo'llari va o'zgarish dinamikasi o'rganilgan. Xalqaro reytinglardan foydalangan holda, sohani rivojlantirish uchun mobil texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiya, mobil texnologiya, turistik infratuzilma, axborot texnologiya, turistik ilovalar, mobil ilovalar, mobil operatsion tizim* Abstract: *This article examines the importance of innovative technologies in tourism, ways to use them effectively and the dynamics of change. Using international rankings, the possibilities of using mobile technologies to develop the industry were analyzed*

Key words: *innovative technology, mobile technology, tourism infrastructure, information technology, tourism applications, mobile applications, mobile operating system.*

Kirish.

Turizm sohasi rivojlanishining hozirgi bosqichida axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minot muhim o'rin tutadi. Texnologik taraqqiyot turizm faoliyatiga shiddat bilan kirib bormoqda, xususan, GPS navigatsiyasidan foydalangan holda mobil telefonlar uchun noyob multimedia qo'llanmalari ishlab chiqilmoqda va sayyohlarga taklif etilmoqda. Turistik biznes - tadbirkorlikning harakatlanuvchi yo'nalishi hisoblanadi. Soha vakillari doimiy ravishda mijozlar bilan aloqada bo'lishlari, har qanday vaziyatni masofadan turib muvofiqlashtirishlari, har qanday savol va sharhlarga imkon qadar tezroq javob berishlari, so'nggi daqiqalargacha ham sayohatlar va ekskursiyalar putyovkalarini taklif qilishga tayyor bo'lishlari kerak. Bunda turistik agentliklarga maxsus ishlab chiqilgan mobil ilovalar muhim yordamchi bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra hozirgi kunda dunyoda sayohatchilarning qariyb 75 % i o'zlarining marshrutlarini online platformalar orqali amalga oshirishni rejalashtirmoqdalar. Bunday platformalar misol sifatida Agoda, Booking.com va Airbnb kabilarni kiritish mumkin. Sayohat qilayotgan turistlarning 70 %idan ortig'i ijtimoiy tarmoqlar orqali sayohatlarini boshqalar bilan bo'lishib borishadi. 35% atrofidaagi turistik safarlar ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan ma'lumot va tavsiya qilingan manzillar orqali amalga oshirilmogdal . Shuni ta'kidlash kerakki, axborot tizimlarining rivojlanib borayotganiga qaramay, mamlakatimizning turizm sohasida mobil innovatsion texnologiyalardan foydalanish yetarli darajada emas. Turizm salohiyati yuqori bo'lgan xorijiy mamlakatlarda axborot va mobil texnologiyalar sohaning ajralmas qismi hisoblanadi. Turistik salohiyatni oshirish maqsadida IT dasturchilari tomonidan biznesni rivojlantirishda mobil texnologiyalarni moslashtirish va yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, "2019 — 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida turizm sohasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan yangi xizmat turlarini innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish vazifasi belgilangan[1]. Kelajakda sayohatlarni amalga oshirish va bronlashtirishda mobil texnologiyalarning katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Zamonaviy operatsion tizimga ega bo'lgan uyali aloqa vositalari sayyohlarga nafli bo'lgan dasturlar paketlari bilan birgalikda, ularning vaqti va xarajatlarini tejaydi, safarlarda beminnat dastyor bo'ladi. Biroq, bugungi kunda mobil texnologiyalarni rivojlanishiga to'siq bo'layotgan bir nechta omillarni ko'rsatish mumkin. Bular jumlasiga foydalanuvchilarning smartfonlardan to'liq foydalanishni bilmashliklari va to'lov tizimidagi murakkabliklar hamda infratuzilmani rivojlanmaganligini kiritish mumkin. Ko'pgina uyali aloqa egalari, ayniqsa katta yoshdagilar, telefonning ayrim funksiyalarini ishlata olmaydilar, undan faqat aloqa vositasi sifatida foydalanishadi. Bundan tashqari, elektron to'lovlarni amalga oshirishdagi muammolar: xizmatni yo'lga qo'yilmaganligi, internet aloqasini yo'qligi yoki tezligini pastligi, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq xavf-xatarlar, kiberjinoyat holatlarini mavjudligi kabi holatlarni mavjudligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, maqolada mamlakatimizning turizm salohiyatini oshirish, xorijiy va ichki turistlarni jalb etishni kuchaytirishda mobil innovatsion texnologiyalarda foydalanish imkoniyatlari va yo'llari asoslangan.

XX asrning 30-yillarida o'zbek tilida ko'plab terminologik lug'atlari tuzilib nashr etildi. Shu jarayonda terminlar tarixi, terminlarning ma'no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi va yasalishi, taraqqiyot yo'li va boyish manbalari haqida nazariy masalalar ham ishlab chiqildi. Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi, yangi terminlarning paydo bo'lishi ilm-fan taraqqiyoti va sohalar rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Buni L.I. Bojno quyidagicha ta'kidlaydi: "Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika jarayoni qonuniyatlari, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi". Turizm terminologiyasi ham o'zbek terminologik tizimida alohida o'rin egallaydi, biroq bu terminologik tizim hali nazariy jihatdan tadqiq etilmagan. O'tgan asrda turli sohalarga oid terminlar o'zbek tiliga rus tili orqali Yevropa tillaridan o'zlashgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, to'g'ridan-to'g'ri chet tillaridan o'zlashmoqda. Ma'lumki, xalqaro terminlarda yunon va lotin tiliga taalluqli terminelementlar ko'p kuzatiladi. Turizm terminlarida terminelementlar mavjudligini tekshirish ham nazariy masalardan biri hisoblanadi. Rus tilshunosligida turizm terminologiyasi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilganini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, E.T. Belan, V.L. Vinogradova tomonidan dissertatsiyalar himoya qilingan. Shuningdek, turizm terminologiyasiga bo'yicha ilmiy kuzatishlar olib borilgan. Terminlar sinonimiyasi ma'lum fan va sohalarning to'xtovsiz rivojlanishi, yangi-yangi tushunchalarning, binobarin, terminlarning paydo bo'lishi mahsulidir. Biroq ilmiy uslubda, fanda terminlarning aniqligiga ehtiyoj kuchli bo'lgani sababli terminlar dubletligidan qochish uchun tabiiy intilish sezilib turadi. Shunga ko'ra terminologiyaga bag'ishlangan barcha adabiyotlarda terminlar sinonimiyasi terminologiyaning jiddiy nuqsoni deb ko'rsatiladi. Rus terminologiyasi tarixi bilan maxsus shug'ullangan L.L.Kutina shunday deb yozadi: "Ilmiy terminologiya sohasida keng tarqalgan sinonimiya hodisasi terminologik sistemalar amal qilishining ilk davri, ularning shakllanish davri uchun xarakterlidir".¹ Biroq sinonimlik faqat terminologik sistemalarning dastlabki rivojlanish bosqichigagina xos bo'lib, hozirda bu holat terminologiyada yo'q deb o'ylamaslik kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Demak, terminlar sinonimiyasi barcha tillarda uchraydigan hodisa hisoblanar ekan. Ingliz tilida 334 ta, rus tilida esa 144 ta o'zaro sinonim bo'lgan turistik terminlar mavjudligi aniqlangan. Har ikki tilde ham kavzisinonimlar ustunlik qiladi. Kvazisinonim – ma'nosi qisman bir-biriga mos keluvchi, biroq terminologiyada aynan bir xil tushunchani ifodalash uchun xizmat qiluvchi sinonimlar. Masalan, ingliz tilida administrator (adminstator) termini bilan bir paytda xuddi u ifodalagan ma'noni ifodalovchi receptionist termini qo'llanadi. Receptionist o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda “qabul qiluvchi” degan ma'noni anglatadi (o'zbek tilida bu terminning administrator varianti iste'molda faol qo'llanadi). Bu kabi holatga bir qancha namunalarni keltirish mumkin: stewardess, cabin girl – stuardessa; second class, economy class – ikkinchi klass; accomadation, room – xona; Rus tilida esa quyidagi birliklar sinonimik qatorni tashkil etadi: тип по городу, обзорная экскурсия по городу – shahar bo'ylab sayohat; двухместный номер, номер с двухспальной короватью – ikki o'rinli nomer; электропоезд, электричка – elektrtichka; турист, экскурсант – turist. Boshqa tillardan farqli ravishda inglizcha xalqaro turtistik terminlarda omonimiya hodisasi ham kuzatiladi. Bir termin bir necha ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi: charter – 1) ustav, nizom; 2) yollanma reys; 3) yollangan samalyot; 4) yollangan kema; 5) charter dam olish; porter – 1) yuk tashuvchi; 2) shveytsar; 3) eshik qorovuli; route – 1) yo'nalish; 2) kurs; 3) qatnov yo'li; cabin – 1) kupe; 2) salon; 3) kayuta. Rus tilida esa terminlar omonimligi kuzatilmaydi. Demak, yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqot ishi qiyosiy xarakterga ega bo'lib, formal-struktur va matematik statistika metodlaridan keng foydalanilgan, rus va ingliz tillaridagi turizm sohasiga oid terminlar tahlil qilingan, terminologiya sohasining ochiq xususiyatga ega ekanligi qayd etilgan, tarixiy va ijtimoiysabablarga ko'ra ingliz tilining xalqaro turizm terminologiyasida muhim rol o'ynashi e'tirof etilgan. Turizm terminologiyasining nazariy masalalariga bag'ishlangan yana bir tadqiqot Vinogradova Ludmila tomonidan himoya qilingan (“Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах”). Rus va ingliz tillaridagi turistik terminlar sinxron va diaxron aspektda tadqiq etilgan ushbu ishda turistik terminlar paydo bo'lishining muhim tipologik xususiyatlari o'rganilgan. Leksemalar analizining diaxron metodi turizm terminosistemasining paydo bo'lish jarayonini har tomonlama tavsiflashni taqozo qiladi. Shunga ko'ra dissertatsiyada turizm terminosistemasining rus va ingliz tillaridagi rivojlanish bosqichlari ajratilgan, turistik terminologiya bilan bog'liq tushunchalar sistemasi hosil bo'lishi dalillangan. Rus va ingliz tillaridagi turizm terminologiyasining semantik va struktur xususiyatlari batafsil yoritib berilgan. Tahlil uchun 1700 ga yaqin leksema va so'z birikmasi olingan bo'lib, ulardan 700 tasi rus tiliga, 990 tasi ingliz tiliga mansubdir. Ikki tilli so'zlik ilova qilingan. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri terminlar sistemasining muhim xususiyatlari keltiriladi, turistik termin va turizm terminologiyasi tushunchalariga ta'rifberiladi. Terminologiyaning muhim xususiyatlari sifatida quyidagilar qayd etiladi: 1) semantik xususiyat: ixtisoslashganlik, tushuncha bilan aloqadorlik, tushunish darajasida sistemalanganlik, aniqlik, motivlanganlik, bir ma'nolilik, kontekstual mustaqillik; 2) formal xususiyatlari: ifoda planida sistemalanganlik, invariantlik, qisqalik; 3) pragmatik xususiyatlari: ta'riflanganlik, o'rnatilganlik. Turistik termin – turizm terminosistemasining elementi hisoblangan, turizm sohasidagi o'ziga xos tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi. Turistik terminosistema o'z ichiga sohaga oid terminlarni va terminoidlarni oluvchi tizim deya qayd etiladi. Tadqiqotchi

terminoid deganda turizm sohasidagi kasbiy maxsus leksik birliklarni (профессионализм), kasbiy soʻzlashuv tilida qoʻllanadigan soʻz va iboralarni (профессиональные просторечие) va kasbiy jargonlar (профессиональные жаргонизми) ni nazarda tutadi. Shu oʻrinda termin va kasbiy leksika oʻzaro farqlanadi. Koʻpgina tadqiqotchilar (M.N.Volodina, S.G.Kazarina) leksikaning bu ikki qatlami birgalikda mavjud boʻlishi va axborot koʻlamida bitta hududda ekanligini qayd etishsa, ayrimlar (N.M.Shanskiy) kasbiy leksikani termin sifatida baholaydi, boshqalar esa (T.R.Kiyak) sinonim terminlar deb hisoblaydi. L.Vinogradova kasbiy leksema bilan terminlar oʻzaro bogʻliq boʻlsa-da, biroq qoʻllanish sohasi jihatdan farq qilishini aytadi: terminlarga “rasmiylik”, kasbiy leksema norasmiy munosabatlarda foydalanilgani uchun “norasmiylik” maqomini beradi. Dissertatsiyada ajratilgan terminosistema doirasida kasbiy leksika ham tahlil qilinadi va ular terminoid birliklar deb ataladi. Tadqiqot doirasida quyidagilar aniqlangan: 1. Rus va ingliz tillaridagi turistik terminlar mazkur terminologik sistema chegarasida xizmat qiladi, turistik faoliyat va turizm sohasidagi tushunchalarni nomlaydi, shunga koʻra tushunchaviy terminologik maydon, mikromaydon va mavzuiy guruhlarga ajratiladi. 2. Turizm terminosistemasining shakllanishi rus va ingliz tillarida turlicha kechgan. Ingliz tilidagi turizm terminologiyasi deyarli mustahkam shakllangan, rus tilidagi esa rivojlanayotgan sistemadir. 3. Har ikki til turizm terminosistemasidagi maksimal yaqinlik termin hosil boʻlishida qatnashuvchi morfemik asosda kuzatiladi. Termin hosil boʻlishining sermahsul usuli har ikki til uchun ham suffiksatsiya va qoʻshma soʻz hosil qilishdir. Terminologik birikmadagi asos soʻz har ikki til modellarida ham ot turkumiga mansubdir. Biroq rus tilida asos soʻz atrofida birlashuvchi leksik birlik sifat turkumiga mansub boʻlsa, ingliz tilida ot turkumiga mansubdir. Masalan, tourist class – туристический класс – turistik klass (ot+ot) (sifat + ot) (sifat + ot) wine tourism – винный туризм – vino turizmi (ot+ot) (sifat + ot) (ot+ot) business tour – деловой туризм – xizmat turizmi (ot+ot) (sifat + ot) (ot+ot) fam-tour – рекламный туризм – reklama turizmi (ot+ot) (sifat + ot) (ot+ot) vegetarian meal – вегетарианская еда – vegetariancha ovqat (ot+ot) (sifat + ot) (sifat + ot) master key – этажный ключ – qavat kaliti (ot+ot) (sifat + ot) (ot+ot) 4. Rus va ingliz tillari omonimiya va antonimiya kabi leksik-semantik munosablarda bir xillikka ega. Termin-omonim va termin-sinonimlar oʻrtasidagi foizlar nisbati bir xil koʻrsatkichga yaqin. Ular oʻrtasidagi asosiy farq ingliz tilida modellashtirilgan omonimlarning mavjudligidir. Rus tilida esa bunday holat mavjud emas. Ingliz tilida polisemiya hodisasi koʻp kuzatilsa, rus tilida katta miqdordagi variantlarda sinonimiya hodisasi kuzatiladi. Bu holat ingliz tili turizm terminologiyasi rus tilidan ancha rivojlangan, meʼyorlashganligini koʻrsatadi. 5. Har ikki tilda ham semantik derevatsiyani kuzatish mumkin. Bu holatda terminologizatsiya, determinologizatsiya va transterminologizatsiya hodisalari sodir boʻlgan va terminologik fond mundariyasi kengaygan. 6. Rus va ingliz tillari turizm terminologiyasidagi katta farqsoʻz oʻzlashtirish darajasida koʻrinadi. Rus tilida termin oʻzlashtirish 60,3 foizni, ingliz tilida esa 6,3 foizni tashkil qiladi. Demak, termin hosil qilishda oʻzlashtirish rus tilida sermahsul usuldir. Inglizcha oʻzlashmalarning koʻpligi ikki tildagi terminosistemalar oʻzaro yaqinlashish tendensiyaga ega ekanligidan dalolat beradi. Rus va ingliz tillaridagi turistik terminlarning qiyosiy tahliliga, ilmiy nazariy tadqiqiga bagʻishlangan bu tadqiqot ishida ham formal-struktur va matematik statistika metodlaridan keng foydalanilgan. Yuqorida koʻrib oʻtilgan tadqiqot ishlari tahlilidan

ma'lum bo'ladiki, turizm terminologiyasi jahon, rus tilshunosligida ilmiy tadqiqot darajasida o'rganilgan. Turizm terminosistemasining shakllanish davrlari aniqlab chiqilgan. O'zbek tilida turizm terminologiyasi ilk shakllanish bosqichida bo'lib, soha rivoji natijasida uning tarkibi yangi maxsus birliklar bilan boyib bormoqda. Turizm iqtisodiy faoliyat natijasida dastlab Angliyada vujudga kelganligi uchun uning vatani sifatida shu hudud e'tirof etiladi. Shuningdek, xalqaro turizm terminologiyasida ingliz tilining yetakchi mavqeda ekanligini inobatga olsak, o'zbek tilidagi o'zlashmalarning asosiy qismi shu tildan o'zlashganligi tabiiy holdir. O'zbek tili materiallari asosida to'plangan turistik terminlar tahlil qilinganga quyidagi holatlar kuzatildi. XULOSA Turizmning bir qancha turlari mavjudligi "turizm" tarkibli terminlarning ham mavjud bo'lishini o'z-o'zidan taqozo qiladi: bolalar turizmi, ekstremal turizm, gastronomik turizm, harbiy turizm, havaskorlik turizmi, ichki turizm, ijtimoiy turizm, individual turizm, karvon turizmi, kongress turizmi, madaniy turizm, milliy turizm, muzey turizmi, nikoh turizmi, reklama turizmi, sanoat turizmi, sarguzashtli turizm, sog'lomlashtirish turizmi, tog' turizmim, kichik turizm zonalari kabi. "Tur", "nomer", "klass" terminlari ishtirokida yuzaga kelgan maxsus leksik birliklar, asosan, turistik xizmat ko'rsatish sohasida faol iste'molda bo'lgan terminlardir: tur militsiyasi, tur paket, tur tashkilotchisi, tur yo'llanma; bir o'rinli nomer, ikki o'rinli nomer. Turizm terminologiyasi ochiq xarakterda bo'lib, takibining tez boyishi bilan boshqa terminologik tizimlardan farq qiladi. Jahon tishunosligida turizm terminologiyasi bo'yicha qiyosiy xarakterdagi ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilganligi ularda ushbu soha terminologiyasi ma'lum ma'noda tartibga solinganligi, yangi paydo bo'layotgan tushunchalarni nomlashda ma'lum tamoyillar ishab chiqilganidan dalolat beradi. O'zbek tilida mavjud turistik terminlarni tartibga solish, termin tanlash va uni muomalaga kiritish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish soha oldidagi muhim vazifalardan biridir.

REFERENCES:

1. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent, 2011.
2. Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
3. Алиева М. Дизайнерлик терминларида семантик майдон // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017.
4. Бектемиров Ҳ., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент: Фан, 2002. – 48 б.
5. Белан Э. Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологий международного туризма): Автореф.дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2009.